

**ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARINING KASBIY  
MADANIYATI**

*Saxatov Bekzod Kenjayevich,  
Navoiy viloyat Ichki ishlar boshqarmasi  
TKX KITEB xodimi  
Tel: (91) 254-02-02*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2023-yil 20-yanvarda “Ichki ishlar organlarini xalqchil professional tuzilmaga aylantirish va aholi bilan yanada yaqin hamkorlikda ishlashga yo‘naltirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori imzolandi. Unga ko‘ra Ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy madaniyat va xizmat intizomi kodeksi tasdiqlandi.

Kodeksda belgilangan qoida va talablar xodimlarning xizmat vazifalariga halol, vijdonan, Vatan va xalq oldidagi burchini chin dildan his etgan holda, chuqur mas’uliyat va tashabbuskorlik hissi bilan yondashish, ularda yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlar, vatanparvarlik va o‘z kasbiga sadoqat tuyg‘usini shakllantirish, sodir etilishi mumkin bo‘lgan nojo‘ya xatti-harakatlar, suiste’molchilik va korrupsiya holatlarining barvaqt oldini olishga yo‘naltirilgan.

Ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy madaniyati – bu ichki ishlar organlarida ishlayotgan xodimlarning professional faoliyatida yuqori ahamiyatga ega bo‘lgan, etika, axloq, mehnat madaniyati, qonunlarga hurmat, shuningdek, davlat va jamiyat manfaatlarini ustuvor qo‘yish bilan bog‘liq qadriyatlar, tamoyillar va odatlardir.

Demak bunda halollik – insonning asosiy fazilatlaridan biri bo‘lib, rostgo‘ylik, printsiplarga sodiqlik, qabul qilingan majburiyatlarga sodiqlik, ishning to‘g‘ri ekanligiga subyektiv ishonch, inson boshqaradigan motivlarga nisbatan boshqalarga va o‘ziga nisbatan samimiylikni o‘z ichiga olgan axloqiy sifatdir.

Halollik inson xarakterining mohiyatidan kelib chiqib, insonning o‘z vazifasini vijdonan va ongli ravishda bajarishida namoyon bo‘ladi. Chin ma’nodagi

halollik va'daga vafo qilish, so'z bilan ish birligi demakdir. So'zining ustidan chiqmagan odam beburd, belafz odam hisoblanadi. Molu davlat peshona teri bilan, mehnat bilan topilsa haloldir. Halollik rostgo'ylik, to'g'rilik, axloqiy poklik, samimiylik kabi insoniy fazilatlar majmuasidan iborat. Halollik – haromning ziddi. Halol amallarga quyidagi fazilatlar kiradi: mehnat bilan tirikchilik qilish, halol rizq topish, yaxshi niyat qilish, yaxshi so'zlash, yaxshi amallar qilish, omonat va qarzlarni o'z vaqtida qaytarish, yetimlarni kafillikka olish, vafodorlik, gunohni savob ishlar bilan yuvish, ehson va sadaqa qilish, muhtojlarga qarz berish, yordam ko'rsatish, mehr-muruvvatli, oqibatli bo'lish va hokazo. Halollik inson ma'naviyatining eng ezgu fazilatlaridan biri bo'lib, jamiyat taraqqiyotini belgilaydi. Jamiyatda halol insonlar qancha ko'p bo'lsa, u shuncha taraqqiy etadi. Binobarin, halol odam vazifasiga mas'uliyat bilan yondashadi, qing'ir yo'llar orqali boylik orttirishni o'ylamaydi, ishi, xalqi, vataniga sodiq bo'ladi.

Vijdon – axloqiy tushuncha, yaxshilik nima-yu, yomonlik nimaligiga javob beradigan ichki ishonch, o'z xatti-harakatlari uchun axloqiy mas'uliyatni anglash. Vijdon shaxsning axloqiy jihatdan o'z-o'zini nazorat qila olish, o'zida axloqiy burchni mustaqil shakllantirish hamda o'zidan uni ado etishni talab qilish va o'z xatti-harakatlariga baho berish qobiliyatini ifodalaydi. Vijdon dastlabki axloqiy mayl bo'lib, tashqi ta'sir tufayli rivojlanishi yoki so'nishi mumkin. U ehtiros, hissiyot shaklida shaxsning o'z xatti-harakatlari uchun uyalish, pushaymon bo'lish yoki axloqiy qoniqish sifatida namoyon bo'ladi. Vijdon yaxshilik, burch, baxt, halollik kabi boshqa axloqiy tushunchalar bilan bog'liq. Jamiyatning rivojlanishi, ma'naviy, axloqiy yuksalishi bilan vijdon tushunchasining mazmuni va mohiyati boyib boradi. Uning mohiyati ijtimoiy muhit bilan belgilanadi. Vijdon boshi berk ko'chaga o'xshaydi. Undan chiqish qiyin, lekin chiqish esa insonning o'ziga bog'liq. Vijdon erkinligi tushunchasi vijdon tushunchasining muayyan qismini tashkil etadi.

Burch – kishining biror shaxs, oila, jamoa, el-yurt, Vatan oldidagi majburiyatini anglatuvchi axloqiy tushuncha. Bizda obyektiv munosabatlar ifodalanadi, ya'ni u jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va axloqiy negizlari bilan

belgilanadi. Buning o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib, u insonning ichki kechinmalari, tashqaridan turib nazorat qilinmaydigan murakkab ruhiy holatini ifodalaydi. Bu iymon-e'tiqod, onglilik, halollik, vijdon kabi tushunchalar bilan chambarchas bog'liq. Burch qanday vazifa, kimning oldidagi majburiyat ekanligiga qarab turlicha bo'ladi (milliy burch, ijtimoiy burch, umuminsoniy burch va boshqalar). Ijtimoiy va shaxsiy burch, oilada ota-onalik burchi, farzandlik burchi va boshqa burchlar bor. Burch nisbiy tushuncha. U ijtimoiy taraqqiyot jarayonida mazmunan boyib, shaklan o'zgarib boradi. Hozirgi sharoitda insonning tabiat va avlodlar oldidagi burchi yangicha mazmun kasb etmoqda. Oilaviy burch esa jamiyat oldida turgan maqsadlar bilan yanada uyg'unlashmoqda. Ona Vatanga, xalqqa xizmat qilish eng ulug' va sharaflil burch hisoblanadi.

Mas'uliyat – ma'naviy, ijtimoiy va ma'muriy-huquqiy sohalarda keng qo'llaniladigan tushuncha; ma'naviyat nuqtai nazaridan yondashilganida burch; ijtimoiy ma'noda jamiyat va boshqa oldidagi ma'naviy qarzdorlik; ma'muriy jihatdan, ijtimoiy tartibga solishning turli me'yorlarini amalga oshirishni nazarda tutuvchi jamoatchilik nazoratining namoyon bo'lishi; huquqiy yondashuvda esa asosan yuridik javobgarlikni anglatadigan serqirra va keng ma'noli kategoriya. Mas'uliyat muammosiga fanda azaldan erkinlik va zarurat kategoriyalarining o'zaro nisbati, shaxs xulq-atvori va faoliyatining ma'naviy-axloqiy jihati nuqtai nazaridan yondashib kelinadi. Shu ma'noda mas'uliyat tushunchasi falsafiy, axloqiy, psixologik, yuridik, ijtimoiy-iqtisodiy sohalarga xos ko'plab masalalarning murakkab majmuini qamrab oladi. Bu hol inson va ijtimoiy borliq mohiyatining murakkabligi va rang-barangligi bilan belgilanadi.

Tashabbuskorlik – faoliyat jarayonida biror ishni boshlash, da'vat etish, ijodiy yondashishda namoyon bo'ladigan shaxs xususiyatini anglatuvchi tushuncha. Tashabbuskorlik belgilangan maqsad yoki ish, harakatni amalga oshirishda o'ziga xos uslubdan foydalanish va uni shu maqsad yoki ishga aloqador barcha kishilar tomonidan qo'llab-quvvatlanishiga erishishni ham ifodalaydi. Tashabbuskorlik kasbga, sohaga, individual yoki ijtimoiy masala kabilarga qaratilgan bo'lishi, moddiy, ma'naviy, huquqiy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy va hokazo maqsadlarni

ifodalashi mumkin. Yoshlar ma'naviyatida tashabbuskorlikni shakllantirish zamon talabidir. Bu sohadagi adabiyotlarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, masalan, bola shaxsining tashabbuskorligi, ijodiy imkoniyatlari yuqori bo'lishi bir-biri bilan uzviy aloqador bo'lgan bir qator omillarga bog'liq.

Vatanparvarlik – Vatanining ozodligi va obodligi, uning sarhadlari daxlsizligi, mustaqilligining himoyasi yo'lida fidoyilik ko'rsatib yashash, ona xalqining or-nomusi, shon-sharafi, baxtu saodati uchun kuch-g'ayrati, bilim va tajribasi, butun hayotini baxsh etishdek dunyodagi eng muqaddas va olijanob faoliyatni anglatadigan tushuncha. Vatanparvarlik nihoyatda serqirra tushuncha bo'lib, tarixiy, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy taraqqiyot jarayonida doimo takomillashib, yangicha ma'no-mazmun bilan boyib, rivojlanib boradi. Vatan manfaati, qadr-qimmat, taqdiri, istiqboli, ona yurtga muhabbat tuyg'usi qancha chuqur anglansa, vatanparvarlik tuyg'usi shuncha yuksak bo'ladi. Tarixiy, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy taraqqiyotning turli bosqichlarida vatanparvarlikning yangi-yangi qirralari namoyon bo'lib boradi. Haqiqiy vatanparvarlik Vatanga, ona zaminga, o'z xalqiga muhabbat bilan yashash, uning istiqboli, manfaati yo'lida tinimsiz mehnat qilish hamda kurashish zarurati tug'ilganda jonini fido qilishni nazarda tutadi. Har jabhada Vatanimiz erishayotgan muvaffaqiyatlardan quvonish, og'ir kunlarida uning uchun qayg'urish, o'z yurti bilan g'ururlanish, uning har bir qarich yeri, har bir g'ishti va giyohiga, qadimiy va zamonaviy obidalari, ilm-fan va san'atdagi yutuqlarini, moddiy va ma'naviy boyliklarini ko'z qorachig'idek asrab-avaylash – bularning barchasi vatanparvarlikdir.

Bu borada Muhtaram Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyevning “Agar davlat tayanadigan asosiy ustun qonun bo'lsa, uning kuchini amalda namoyon etadigan eng samarali tizim bu - ichki ishlar sohasi, desak, ayni haqiqat bo'ladi. Men Yangi O'zbekistonning ichki ishlar organlari xodimlari - Vatanimizning asl o'g'lonlari sifatida zamonaviy bilimlarni egallagan, ma'naviy va ma'rifiy dunyosi boy, har qanday xavf-xatarga qarshi matonat bilan kurashishga tayyor, xalqimizning chin ma'nodagi himoyachilari ekaningizga qat'iy ishonaman” degan so'zlari biz ichki ishlar xodimlariga yanada ishonch, kuch va g'ayrat bag'ishlaydi.

Xulosa qilib aytganda Ichki ishlar xodimlarining kasbiy madaniyati ular kundalik ish faoliyatida qanday odob-axloq qoidalariga amal qilishlariga bog'liq. Fuqarolar bilan muloqotda adolatli, odobli va xushmuomalalikni saqlash, ularga yordam berish, muammolarni hal qilishda e'tiborli bo'lish zarur. Umuman olganda, ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy madaniyati nafaqat ularning professional faoliyatida, balki jamiyat bilan o'zaro munosabatlarda ham yuqori darajada axloqiy va huquqiy me'yorlarga asoslanadi. Bu kasbiy madaniyat davlatning huquqni himoya qilish tizimini mustahkamlash, fuqarolarni himoya qilish va jamiyatda tartibni saqlashda muhim rol o'ynaydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 20-yanvarda "Ichki ishlar organlarini xalqchil professional tuzilmaga aylantirish va aholi bilan yanada yaqin hamkorlikda ishlashga yo'naltirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-10-son qarori
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. –Toshkent: "O'zbekiston", 2017.
3. Insoniylikning eng muhim fazilati – Vatanga bo'lgan muhabbatdir.  
<https://yuz.uz/uz/news/insoniylikning-eng-muhim-fazilati-vataniga-bo'lgan-muhabbatdir>